

UDK 94(575.146)

BUXORO AMIRLIGI MADRASALARIDA SHARIAT SOHASIDAGI FANLARNING O'QITILISHI

Elmurodova Nigora Jobir qizi

*Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va
Buxoro tarixi kafedrasи tayanch doktoranti*

(90)635-81-01

nigorascientific1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro amirligi davridagi madrasalar ta'lif tizimi, u yerda o'qitilgan shariat fanlari va ularga oid o'quv adabiyotlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida madrasalarda talabalar bilim darajalariga ko'ra bosqichlarga ajratilgani, ta'lif jarayonining muayyan darsliklar asosida olib borilgani hamda fanlarning sharh va hoshiyalar bilan chuqur o'zlashtirilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Asosan tafsir, hadis, fiqh, usul al-fiqh va ilmi kalom kabi shariat fanlari yetakchi o'rinn egallagan bo'lib, har bir fan bo'yicha mashhur asarlar va ularning sharhlari madrasa ta'lifida asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Maqolada Buxoro amirligida diniy-ta'lifiy muhit va ilmiy merosning o'r ganilishiga ilmiy asosda yondashilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, madrasa, darslik, ilm-fan, Buxoro amirligi, shariat, tafsir, hadis, ilmi qalam, matni faroiz, talaba, mudarris.

KIRISH

Buxoro amirligi davrida madrasalar musulmon jamiyatining ilmiy-ma'naviy hayotida markaziy o'rinn tutgan muassasalardan biri bo'lib, ular diniy va dunyoviy fanlarning rivojlanishida muhim o'rinn egallagan. Ayniqsa, shariat fanlarining o'qitilishi ushbu ta'lif dargohlarining asosiy vazifasi sifatida qaralgan. Bu holat amirlik davrining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, diniy ilmlarga, xususan, fiqh, hadis, tafsir va kalom fanlariga bo'lgan ehtiyoj va talab ortgan davr edi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Mavzu tarixiga oid ma'lumotlar quyidagi manbalar asosida o'r ganildi:

1. Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar” asaridagi “Buxoro madrasalarida tahlil yili va dars kunlari”, “Buxoro madrasalarining dars programmasi va o’quv kitoblari”, “Mir arab madrasasida o’qigan darslarim” boblaridagi ma’lumotlar asosida;
2. Jadid marifatparvari Abdurauf Fitratning nasriy asarlar turkumiga kiruvchi “Hindistonda bir firangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilgan munozarasi” asaridagi ma’lumotlar asosida;
3. Rus sayyohi N.Xanikovning “Описание Бухарского ханства” nomli asarida Amirlik madrasalari va ularda o’qitilgan fanlar to’g’risidagi ma’lumotlari asosida yoritildi.

Maqolada aynan shariat sohasidagi bilimlarni o’qitishda matn, sharh va hoshiyalar va ularning mualliflari to’g’risida fikr yuritildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Buxoro amirligi madrasalarida har qanday ibtidoiy maktabni bitirgan ilmu tolib o‘qishi mumkin edi. Talabalarning yoshi 10-40 yosh atrofida bo‘lib, ular imtihon asosida qabul qilingan. Bilim darajasiga ko‘ra adno, avsat va a’lo kabi 3 guruhgaga bo‘lingan. Madrasada fanlarga bo‘lib o‘qitish tizimi qo‘llanilmagan. Darslar maxsus kitoblar yordamida olib borilgan. Har bir kitobni o‘rganish uchun belgilangan vaqt bo‘lmagan. Ya’ni har bir talaba o‘z iqtidori doirasida kitoblarni o‘zlashtirgan. Quyi bosqichdan yuqori bosqichgacha ko‘tarilish talabaning iste’dodi va o‘zlashtirishiga bog‘liq edi. Dastavval quyi(adno) bosqichda “Avvali ilm”dan “Aqoid” kitobini o‘qish boshlanguncha dars o’rgatilgan. “Avvali ilm” umumiy kurs hisoblangan va o’quvchilarga bir necha kunda yod oldirilgan. Keyinchalik, arab tili morfologiyasi va sintaksisi bo‘yicha qo’llanma “Bidon”, ”Qofiya”(arab tilining Sarf(morfologiya) va Nahv(sintaksis)ini o’rgatadigan kitob) kabi darsliklarni o‘zlashtirganlar. O’rta(avsat) bosqichda “Aqoid” kitobini o‘qishdan boshlab, Sharhi Mullo kitobini o’qiganlar. A’lo bosqichida esa “Mulla Jalol”(asar muallifining Aqoid kitobidan) sharhidan “Matni Faroiz” o’rganganlar¹. Shuningdek, amirlik madrasalarida tanlov fanlari ham bo’lgan. Masalan matematika fanini o‘qishni istagan

¹ Айний С. Эсдаликлар (I-II қисмлар) / Асарлар. Саккиз томлик. V-том. – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б.163.

talaba, mutaxassis matematikning oldiga borib, u bilan shug'ullanib o'rgangan. Adabiyotga qiziquvchilar ham xususiy tarzda u bilan shug'ullanar edi. Amirlik madrasalarida ona tili fani ham o'qitilmas edi. Ona tilini o'rganishga ehtiyoji bo'lgan mullavachchalar o'zlaridagi bor qobiliyat va eski kitoblarning mutolaasi orqali o'rgangan².

O'quv yili oktabr oyida boshlangan. Madrasada darslar ertalab bomdod namozidan so'ng boshlangan. Talabalar sinflarga bo'linib, mudarrislar atrofida yarim doira bo'lib o'tirib, kitobni o'qiy boshlaganlar, mudarrislar esa ularni sharhlaganlar. Talabalarning kun tartibi quyidagicha edi: mashg'ulotlar ertalab soat to'rtdan o'ngacha, o'n ikkidan so'ng peshin namozi o'qilgan, tushlik, so'ng o'tilgan darsni mustahkamlash uchun bir biriga so'zlab berish (mukolama), bahs (munozara) bo'lgan. To'rtdan oltigacha tanaffus, kechki ovqat va kechgacha yana bahs munozara davom etgan. Har bir sinfning o'z o'quvchilari (jamoa) va o'z mudiri (qori-jamoa) bo'lgan³. Madrasada o'qitiladigan barcha fanlar diniy-falsafiy yo'nalishga qaratilgan bo'lib, asosan ilohiyot, fiqhiy munozaralar va diniy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilgan. Yevropa davlatlaridagi fanlar madrasalarda umuman o'qitilmagan va u butunlay e'tibordan chetda qolgan.⁴

Madrasada darslar kitoblarga asoslangan holda olib borilgan. Bu kitoblarning soni 137 taga yetgan⁵. Buxoro madrasalarida asosan arab tilining sarfi navhi, mantiq, aqodi islom,(ilmi kalom), hikmat(tabiiy va ilohiy), fiqhi islom(tahorat, namoz, ro'za, janoza, haj, zakot, nikoh, taloq), savdo sotiq(musulmon jamiyati orasida bo'ladigan munosabat) kabi ilmlar oqitilgan⁶. Darsliklarning aksariyati arab tilida, ayrimlari fors tilida, juda oz qismi turkiy tilida yozilgan. Umumiy hisobda 137 ta kitob madrasalarda o'qitiladi, Biroq, ko'pgina kitoblar shunchaki yodlab olinadi, ularning mazmuni esa tushunilmaydi⁷. Sharqshunos olima Anke fon Kyugelgen Buxoro amirligidagi madrasalarda o'qitiladigan kitoblar soni haqida yozar ekan, u Xanikov va Demezon ma'lumotlariga tayanadi.

² Айний С. Эсадиклар (I-II қисмлар) / Асарлар. Саккиз томлик. V-том. – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б.164.

³ Ремпель Л.И. Далёко и близкое. Страницы жизни быта строительного дела, ремесла, искусства старой Бухары. Ташкент, 1981

⁴ Шубинский П. Очерки Бухари. Спб. 1982. -С.636

⁵ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С.210

⁶ Айний С. Асарлар. Эсадиклар (I-II қисмлар). – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1953. – Б.163

⁷ Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. Copengagen-London, 1911.- P.386.

N.Xanikov o‘z asarida Buxoro madrasalarida yuzdan ortiq kitob o‘qitiladi deb ta’kidlagan bo‘lsa⁸, Demezon madrasalarning biridagi o‘quv jarayonida bir oy dan oshiq ishtirot etadi va o‘nga yaqin muallif hamda kitob nomini sanab o‘tadi⁹.

Buxoro madrasalarida uchta soha bo‘yicha dars berilgan. Ular quyidagi tartibda tasniflangan: Shariat (ilohiyot va qonunshunoslik); Arab tili va grammatikasi (arab tili va filologiya fanlari); Hikmat (falsafa,mantiq, riyoziyot, jug‘rofiya, astronomiya, tibbiyat, kimyo va tabiiy fanlar). Barcha o‘quv qo‘llanmalari uch xil turga bo‘lingan. Birinchi tur o‘quv qo‘llanmalari “Matn” deb atalgan. Ular belgilangan fan yoki sohaga oid asosiy adabiyot bo‘lgan. Ikkinci tur qo‘llanmalar “Sharh” den nomlanib, ularda asosiy matnga tushuntirishlar (izohlar) berilgan. Uchinchi turdagи qo‘llanmalar Hoshiyalar bo‘lib, ular matn yoki sharhlarga qo’shimcha izohlar yoki tushuntirishlar edi. Matnlar va sharhlar mudarris yordamida o‘rganilgan, hoshiyalar (glossariylar) esa talabalar tomonidan mustaqil o‘rganilgan¹⁰.

Shariat fanlari bo‘yicha birinchi guruhni tafsir fanlari tashkil etgan bo‘lib, ular “Tafsiri Baydaviy” (asarning to‘liq nomi: “Anvar at-tanzil va asror at-tovil”) asari asosida o‘rgatilgan. Ushbu asarning muallifi Muhammad ibn Ali al-Baydaviy bo‘lib, umilodiy 1316-17 yillarda vafot etgan.) Ushbu asarga quyidagi sharhlar mavjud edi: 1.a. Shayxzodaning sharhi; 1.b. At-Taftazoniy sharhi (Ahmad ibn Yahya ibn Sa’duddin Mas’ud ibn Umari at-Taftazoniy al-Hiroviy, milodiy 1510 yilda vafot etgan); 1.c. Asomuddin sharhi; 1.d. Abdulhakim Lohuriy sharhi.¹¹ Tahsilning 19-yilida “Tafsiri Bayzoviy” dan “Muavvazatayn” o‘qilib tahsil tugatilgan¹².

Shariat fanlarining ikkinchi guruhini hadis ilmi tashkil etgan. Ushbu ilmni o‘rgatishda Valiuddin Muhammad ibn Abdulloh al-Hotib at-Tabriziy (milodiy 1339-40 yilda vafot etgan)ning “Mishqot ash-Sharif” – “Ash-shiat lama’at fi sharh Mishqot (al-Masabhih)” asari asosida darslar o‘qitilgan. Ushbu asarga quyidagi sharhlar mavjud:

⁸ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С. 209.

⁹ Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2004. – С. 177.

¹⁰ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С. 210

¹¹ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С. 215

¹² Фитрат А. Танланган асарлар. 1 жилд. Тошкент. Маънавият. 2000. Б.56.

1. Ali ibn Sulton al-Qori (milodiy 1606 yilda vafot etgan)ning “Mishqot”sharhi,
2. Abduhaq ibn Sayfiddin ad-Dehlaviy (milodiy 1642-43 yilda vafot etgan)ning “Sharh ash-shiat lama’at fi sharh al-Mishqot” asari,
3. Mir Sayid ash-Sharifning “Mishqot”ga yozgan sharhi, “Tafsiri Tibyon” (at-Tibyon fi adilati mazhab al-Imom Abu Hanifa an-No’mon) Abduhaq ibn Sayfiddin ad-Dehlaviy tomonidan yozilgan.

Shariat fanlarining uchinchi guruhini fiqh ilmi tashkil etgan. Buxoro amirligi madrasalarida fiqh ilmi asosiy diniy fanlardan biri bo‘lib, hanafiy mazhabi asosida o‘qitilgan. Ushbu ta’lim tizimi musulmon jamiyatining huquqiy va axloqiy qoidalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Fiqh ilmi hanafiya fiqhining yirik asarlari asosida o‘qilib, talabalar bosqichma-bosqich yuqori darajaga ko‘tarilgan. Ushbu tizim shariat qonunlarini jamiyatda amaliy qo‘llash vaadolatni ta’minlashda katta ahamiyat kasb etgan. Unda quyidagi asarlar o‘rgatilgan: 1. “Muxtasar ul-viqoya” (Qayta himoya qilish) va unga yozilgan sharhlar:

1.a. Ubaydulloh Sadri Shari'a ibn Mas'ud ibn Toj ash-Shari'a al-Mahbubi al-Buxoriy (milodiy 1349 yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan “an-Niqoya” (Tanlangan qisqartirilgan “Viqoya” kitobi), lekin bu asar “Viqoya ur-rivoya fi masoil al-Hidoya” yoki qisqacha “Muhtasar (al-Viqoya)” deb ataladi.

2) Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Husayn al-Birjondiyning Mirzo Ulug’bek asariga sharhi.

3) Abul-Makorim ibn Abdulloh,

4) Ali al-Qori,

5) Mulla Faxriddin al-Buxoriy.

2.Sharh al-Viqoya ikkita kitobdan iborat bo’lib, unda quyidagi asarlar o’rganilgan:

1. Mahmud Toj ush-Shari'a tomonidan yozilgan “Viqoyat ur-rivoya fi masoil al-Hidoya” (Hidoya masalalarida rivoyatni himoya qilish).

2. Ubaydulloh Sadr Sharia tomonidan yozilgan “Sharh ul -viqoya -ur-rivoyat” (Hidoya masalalaridagi rivoyatlarni himoya qilish). Bu asarga sharhlar:

2.a. Chalabiya tomonidan yozilgan “Sharhi viqoyat-ur-rivoyat”.

- 2.b. Tarshih (“Sharhi viqoyat-ur-rivoyat”).
3. Hidoya – Burhonuddin Ali al-Marg‘iyoniy asari va unga yozilgan sharhlar:
 - 3.a. Abulmuin Samarqandiy tomonidan yozilgan “Inoya” (Yordam, Mehr-shafqat).
 - 3.b. Mahmud ibn Ubaydulloh ibn Makhmud Toj ush-Sharia tomonidan yozilgan “al-Kifoya fi sharh-i al-Hidoya” (Hidoyaning sharhida yetarli tushuntirish).
 - 3.c. “Nihoya” (Oxiri, Chegara).
 - 3.d. Kamoliddin Muhammad ibn Abdulvohid ibn Umama as-Sivasiy al-Hanafiy tomonidan yozilgan “Fathul-Qodir lil-Ajiz al-Faqir” (Kamoliddin Umoma tomonidan yozilgan, zaif va faqir uchun qulay sharh).

Buxoro amirligida fiqh faqat ta’lim sohasi bilan cheklanmay, **huquqiy tizim** asosini ham tashkil etgan.

Usuli Fiqh— fiqh (islomiy huquq) metodologiyasi va manbalari, ya’ni ijmo (barcha musulmonlarning bir ovozdan fikri) va qiyos (analogiya) kabi usullarni o’rgatish. Ushbu fan Shariat sohasining to’rtinchı fanlaridan edi. Sohada quyidagi asarlar o’rganilgan:

1. Umar Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Pazdaviyning Usul - Kanzu-l-vusul ila ma’rifatil-usul” asari va unga yozilgan sharhlar.

-Sadrush-Sharia Ubaydulloh ibn Mas’ud ibn Toj ush-Sharia tomonidan yozilgan “Tanqihu-l-usul” (Qonunshunoslik asoslarini rivojlantirish) asari, bu asar asariga sharh sifatida yozilgan.

2. Ubaydulloh Sadr-ush-Shari'a tomonidan yozilgan “Tavzih fi halli havomiz at-tanqih (li-l-usul)” (Tanjih kitobidagi qiyin masalalarni tushuntirish).

3. At-Taftazoniy tomonidan yozilgan “Talvih” asari va unga yozilgan sharhlar:

1) Chalabiy Hoshiyasi (Sharh) (Sadulloh ibn Iso Afandi “Saadi Chalabiy”, milodiy 1538 yilda vafot etgan).

2) Abdulhakim Lohuriy hoshiyasi .

3) “Talvih” Sharhning sharhi .

Bu asarlar usul al-fiqhning asosiy tushunchalari va metodologiyalarini o’rgatish uchun ishlatilgan

Bu hadis ilmini o'rganish uchun foydalilanilgan asosiy manbalardan ba'zilari bo'lib, ular hadislarning sharhlarini va izohlarini o'z ichiga oladi.

Shariat fanlarining beshinchi guruhini Qalam ilmi (ilmi qalam – fikr yuritish, aqlda asoslangan tushuntirish) bo'lib, metafizik qonunlar o'rgatilgan. unda quyidagi asarlar o'rganilgan:

1. “Asl at-Tavhid” (yoki “al-Fiqh al-akbar”) – Imom Abu Hanifa al-Kufiy tomonidan yozilgan asar.

2. “Aqoid an-Nasafi” (Islomning aqidalari Nasafiy talqinida) – Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismail an-Nasafi (537/1142-43 yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan asar. Ushbu asarga sharh Sharh al-Aqoid an-Nasafi (Nasafiy aqidalari bo'yicha sharh) nomi bilan – at-Taftazoniy tomonidan yozilgan.

Madrasada talabalar mustaqil ravishda quyidagi asarlarni o'rganishgan:

1. Hoshiya Mulla Ahmad ibn Omar al-Jundi (Nasafiy aqidalari sharhiga izohlar).

2. Sharhi Ramazon.

3. Sharhi Ilyos.

4. Hoshiya Xayoliy (Shamsuddin Ahmad ibn Muso al-Xayoliy) – “Hoshiya alo sharh al-Aqoid an-Nasafi” (Nasafiy aqidalari sharhiga qo'shimcha izohlar) va Abduhakim ibn Shamsuddin as-Sialkutiy (1068/1658-59 yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan sharhlar – “Hoshiya alo Hoshiya al-Xayali alo sharh al-Aqoid an-Nasafiy li-t-Taftazoniy” (Taftazoniy sharhiga Xayaliy sharhiga qo'shimcha izohlar).

5. Sharhi Mulla Qosim – Muhammad Qosim ibn Muhammad Solih al-Buxoriy al-Fathobodiy (Hoshiya alo Hoshiya al-Xayali alo sharh Taftazoniy fi al-Aqoid an-Nasafiy – Xayali sharhlariga Sharhning sharhi).

6. Sharhi Qora Kamol.

7. Sharhi Ahmad – Mulla Ahmad ibn Umar al-Jundi.

8. Sharhi Chalabiy.

9. Sharhi Oxund Shayx – Inoyatulloh Shayx al-Buxoriy.

10. Sharhi Abdurahmon ibn Ahmad al-Iji.

11. Sharhi Ismatulloh – Nasafiy asariga sharhlar.

3. Risolayi Adudiyya – “al-Aqid al-Adudiyya” (Adud aqidalari) – Adud al-millat va-d-din Abdurahman ibn Ahmad ibn Abdulg‘affur as-Siddiqi al-Mutirazzi ash-Shabankari – Adudiddin al-Idji (milodiy 1355-56 yillarda vafot etgan) asari va shu asarga yozilgan sharhlar:

3.1. Mulla Jaloliddin ad-Davvoni sharhlari,

3.1.a. Xonaqohiy sharhlari (Davvoni sharhlari uchun sharhning sharhi).

Bundan tashqari, talabalar quyidagi asarlarni o‘rganishgan:

1. “Tatimmat al-havoshi fi izolat al-kavoshi” (Sharhga qo‘shimcha, noma’lumliklarni bartaraf etish) – Yusuf Kusaj al-Qorabog’iy (1501 yilda vafot etgan).

2. “Hoshiyayi-Kalobodiy”.

3. “Hoshiya alo sharh al-aqid al-Adudiyya” – Mavlono Sharif (Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy, 1689 yilda vafot etgan).

Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniyning “Al-Hoshiya al-jadida alo sharh al-aqid al-Adudiyya” – “Adudiyaviy aqid” nomli yana bir asari bor, uning sharhlari quyidagilar:

4. Hoshiyai Oxun Shayx.

5. Hoshiyai Abdulhakim

6.“Takmila (“Tatimma”) – “Tatimma”ga to‘liq sharh (yoki takomillashtirish).

Oltinchi guruhni Ilmi faroiz fanlari tashkil etib, ushbu sohada diniy majburiyatlar bilan bog’liq masalalardan iborat edi. Ushbu fan “Matni Faroiz” (yoki “al-Faroiz as-Sirojiya”) asari asosida o‘rganilgan bo‘lib, bu asar Abdulrashid as-Sijovandiy tomonidan yozilgan. Sharhlarini esa Mir Sayid Sharif Ali ibn Muhammad al-Jurjoniy (vafoti milodiy 1413 yilda) yozgan.

Yettinchi guruh shari’at fanlari esa Qur’onni o‘qish san’ati (ilmi Qiroat) fanidan iborat bo‘lib, bunda tajvid (o‘qish tartibi) o‘rganilgan. Suralar va oyatlar o‘qishda urg’u, cho’zish kabi masalalar o‘rgatilgan. Ular quyidagi asosida o‘rgatilgan:

1. Muhammad al-Jazariyning “Kitob ut-Tamhid fi Ilm at-Tajvid” asari va unga yozilgan sharhlar: 1.a Sharhi Rumiy, 1.b. Sharhi Ali ul-Qori (“Sharh muqaddimati al-Jazariy”), 1.c. Sharhi Misriy, 1.d. “Mufhima”.

2. Shotibiyning asari (yoki “al-Qasida ash-Shatabiya”) – bu asar Abulqosim al-Qosim ibn Firah ibn Abilqosim Halaf ibn Ahmad ar-Rainiy ash-Shatabiy(milodiy 1194-95 yillarda vafot etgan) tomonidan yozilgan va u “al-Foziliya” madrasasining Qur’oni o’qish bo’yicha mudarrisi bo’lgan. Asariga Imomiddin tomonidan sharhlar yozilgan.
3. Sajavandiyning asarlarini o’qish orqali kurs yakunlangan.

XULOSA

Umuman olganda, Buxoro madrasalaridagi fanlar va darsliklar asrlar davomida o‘zgarmasdan, X-XII asrlarda ishlab chiqilgan standartlar asosida faoliyat yuritdi. Bu esa o’z navbatida amirlik madrasalarining taraqqiyotdan orqaga qolishida sababchi bo’ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Айний С. Эсдаликлар (I-II қисмлар) / Асарлар. Саккиз томлик. V-том. – Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашиёти, 1965. – Б.164.
2. Фитрат А. Танланган асарлар. 1 жилд. Тошкент. Маънавият. 2000. Б.56. Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2004. – С. 177.
3. Кюгельген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2004. – С. 177.
4. Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. Copengagen-London, 1911.- P.386. Ремпель Л.И. Далёко и близкое. Страницы жизни быта строительного дела, ремесла, искусства старой Бухары. Ташкент, 1981
5. Ремпель Л.И. Далёко и близкое. Страницы жизни быта строительного дела, ремесла, искусства старой Бухары. Ташкент, 1981
6. Шубинский П. Очерки Бухари. Спб. 1982. -С.636
7. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С.210.